

## SHAHAR AGLOMERATSIYALARINING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

*Xamid MURODOV,*

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi*

*Annotatsiya* Ushbu maqola “Shahar aglomeratsiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, shahar aglomeratsiyalarining ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi markaziy o‘rnini tahlil qiladi. Maqolada shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ta’siri va barqaror rivojlanish uchun ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shahar aglomeratsiyasi, urbanizatsiya, shahar rivojlanishi, aglomeratsiya jarayoni, iqtisodiy markazlar, migratsiya, shahar infratuzilmasi, transport tizimi, ekologik muammolar, demografik o‘zgarishlar, yashash muhiti, shaharlararo o‘zaro bog‘lanish.

*Данная статья посвящена теме Социально-экономическое значение городских агломераций и анализирует центральное место городских агломераций в социально-экономической жизни. В статье рассматривается развитие городских агломераций, их влияние на социально-экономические системы и их значение для устойчивого развития.*

**Ключевые слова:** городская агломерация, урбанизация, городское развитие, процесс агломерации, экономические центры, миграция, городская инфраструктура, транспортная система, экологические проблемы, демографические изменения, среда обитания, межгородское взаимодействие.

*This article is devoted to the topic “socio-economic importance of urban agglomerations” and analyzes the central place of urban agglomerations in social and economic life. The article examines the development of urban agglomerations, their impact on socio-economic systems and their importance for Sustainable Development.*

**Key words:** urban agglomeration, urbanization, Urban Development, agglomeration process, economic centers, migration, urban infrastructure, transportation system, environmental problems, demographic changes, living environment, Interurban interconnection.

Shahar aglomeratsiyalari bugungi kunda dunyo bo‘ylab iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning markazlashgan shakllaridan biriga aylangan. Ular o‘zining kattaligi, iqtisodiy qudrati va aholisi bilan o‘zaro bog‘langan turli tarmoqlarning konsentratsiyasini ifodalaydi. Shahar aglomeratsiyasi atamasi asosan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, iqtisodiy faoliyatda markazlashgan hududlar yoki bir-biriga yaqin joylashgan shaharlarni, ularning atrofidagi aholi punktlarini, sanoat va xizmat ko‘rsatish sektorlarini o‘z ichiga olgan hududiy tuzilmani anglatadi. Aglomeratsiyalar shakllanishining asosiy sabablaridan biri shaharlarning iqtisodiy jihatdan kuchayishi, sanoatning rivojlanishi va shu bilan birga

urbanizatsiya jarayonining intensivlashuvi hisoblanadi. Shaharlar nafaqat yirik iqtisodiy markazlar, balki madaniy, ilmiy va ijtimoiy muhim joylardir. Shu nuqtai nazardan, shahar aglomeratsiyalari nafaqat iqtisodiy jihatdan muhim, balki ular ekologik, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham markaziy rol o'ynaydi.

Shahar aglomeratsiyalarining mohiyati va ular bilan bog'liq rivojlanish bosqichlari nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki amaliyotda ham dolzarb ahamiyatga ega. Shahar aglomeratsiyalarining shakllanishi, o'zgarishi va rivojlanishi turli sabablarga, jumladan, iqtisodiy o'sish, transport infratuzilmasining rivojlanishi, sanoat va xizmatlar sektorining markazlashuvi kabi omillarga bog'liq. Bugungi kunda, shaharlar global miqyosda intensiv urbanizatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda va bu jarayonlar shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarining murakkablashuviga olib kelmoqda. O'zbekiston ham shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi jarayonida bir qator o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi yirik shaharlar mamlakatning iqtisodiy markazlari sifatida faoliyat yuritmoqda va ular nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy rivojlanishning ham markaziga aylangan.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 51-maqсадida iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilmfan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish orqali innovatsion hududlarni shakllantirish vazifalari ko'zda tutilgan<sup>14</sup>.

Shahar aglomeratsiyalarining boshqaruv faoliyatida alohida jihat sifatida ajratilishining ob'ektiv sabablari ko'p jihatdan eng yirik shaharlar aholisi sonining o'sishi va dunyoning aksariyat davlatlari yalpi milliy mahsulotiga (YaMM) yirik shaharlar qo'shayotgan hissaning ortishi tendentsiyasi bilan bog'liq. Shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi mamlakat ichidagi mintaqalararo tengsizlikning o'sishida hal qiluvchi omillardan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar mintaqalar o'rtasidagi rivojlanishdagi divergensiyaning quyidagi asosiy sabablarini ajratib ko'rsatadi:

- «Golland kasalligi» oqibatlarini, bu kapitalning xomashyo sohalariga ko'chib o'tishi va qayta ishlash hamda ilmiy-intellektual tarmoqlarning pasayishiga olib keladi;
- tabiiy rentaning qazib olish va tashish mintaqalariga qayta taqsimlanishi;
- rentaning mamlakatning ma'muriy (aglomeratsion markazlar) hududlarida to'planishi;
- aholining notekis joylashuvi, bu esa ijtimoiy va sanoat infratuzilmasi rivojlanishidagi aniq farqlarga olib keladi.

Mintaqaviy rivojlanishdagi tengsizlikning shakllanishiga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida aglomeratsiyalarni boshqarish xususiyatlarini o'rganish zarurati eng yirik

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

shaharlar sonining va ularning ta'sir doiralari kengayishi prognozlari bilan asoslanadi (1.1-jadval).

### 1.1-jadval

**Dunyoning eng yirik shaharlaridagi aholi sonining o'zgarishi va 2025-yilgacha bo'lgan prognozi, mln kishi<sup>15</sup>.**

Shahar	Mamlakat	Aholi soni			
		1970	1990	2011	2025 (prognoz)
Mexiko	Meksika	8,8	15,3	20,4	24,6
San-Paulu	Braziliya	7,6	14,8	19,9	23,2
Tokio	Yaponiya	23,3	32,5	37,2	38,7
Kalkutta	Hindiston	6.9	10.9	14.4	18.7
Mumbay	Hindiston	5.8	12.4	19.7	26.6
Nyu-York	AQSh	16.2	16.1	20.4	23.6
Shanxay	Xitoy	6.0	7.8	20.2	28.4
Rio-de-Janeyro	Braziliya	6.6	9.6	12.0	13.6
Qohira	Misr	5.6	9.1	11.2	14.7
Pekin	Xitoy	4.4	6.8	15.6	22.6
Lagos	Nigeriya	1.4	4.8	11.2	18.9
Moskva	Rossiya	7.1	9.0	11.6	12.6

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 40 yil ichida dunyoning eng yirik shaharlarida aholi soni 20–50% ga oshgani kuzatiladi va bu jarayonlarning nafaqat milliy xo'jalik, balki jahon iqtisodiyoti uchun ham muhimligini ko'rsatadi.

Jamiyatning hududiy tashkil etilishi shakllari sifatida aglomeratsiyalar milliy iqtisodiyot obyekti bo'lib, ularning rivojlanishi tartibga solinishi zarur. Shu bilan birga, ular boshqaruv subyektlari sifatida shakllanuvchi aholi punktlarining ehtiyojlari, maqsadlari va manfaatlarini aks ettiradi hamda ular rivojlanishini ta'minlaydi. Bunga tegishli iqtisodiy o'sish sur'atlari yordamida erishish mumkin. Iqtisodiy o'sish ushbu aholi punktlarining vertikal va gorizontal integratsiya bosqichlarida yaratilgan yangi qo'shilgan qiymat orqali o'lchanadi.

Biroq, hozirgi vaqtda milliy hisoblar tizimi (MHT)ning amaldagi metodologiyasiga muvofiq, qo'shilgan qiymat asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarning vertikal integratsiyasi natijasida hisoblanadi. Gorizontal integratsiya jarayonining xo'jalik subyektlarining yalpi qo'shilgan qiymatni shakllantirishga ta'siri asosan ishlab chiqarish omillari orqali bilvosita amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy omillar va atrof-muhitning iqtisodiy o'sish, shuningdek, mamlakat va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri yetarlicha hisobga olinmaydi.

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi

Shu sababli, bizning fikrimizcha, milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o‘shini boshqarish bo‘yicha amaldagi amaliyot umumiy holda takomillashtirishni talab etadi.

Xorijiy tajriba aglomeratsiyalar rivojlanishini tartibga solishda ikki asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Birinchi yo‘nalish ma‘muriy ta‘sir usullari bilan bog‘liq — milliy resurslarning tiklanmaydigan zaxiralarini tijorat maqsadlarida ekspluatatsiya qilish va inson salomatligiga zararli mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni taqiqlovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklovlar joriy etiladi. Shuningdek, investitsiyalar uchun maqbul iqlim yaratishga qaratilgan huquqiy va ma‘muriy choratadbirlar — soliq imtiyozlari rejimlari, konsessiyalar va ipoteka taqdim etish kabi choralar ham xuddi shunday ta‘sir ko‘rsatadi.

Ikkinchi yo‘nalish shahar rivojlanishini boshqarishni bozor mexanizmlaridan oqilona foydalanish bilan belgilaydi. Bu xususiy sektor, shu jumladan kichik tadbirkorlik (KT) va aholining hududni samarali rivojlantirish maqsadida faoliyatini rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi. Masalan, G‘arbiy Yevropada shaharlar va aglomeratsiyalarda fan, ta‘lim, boshqaruv markazlari, yirik kompaniyalar va banklar bilan bevosita aloqani talab qiluvchi, istiqbolli bo‘lgan ayrim KT turlari faol rivojlanmoqda.

Aglomeratsion tizimlarni boshqarish bo‘yicha tegishli usullarining federal va mahalliy darajada yo‘qligi ijtimoiy-iqtisodiy inqirozning yanada chuqurlashishiga sabab bo‘lmoqda, bu esa real islohotlarni amalga oshirishni imkonsiz qilib, milliy hudud rivojlanishidagi mintaqalararo tengsizlikni kuchaytiradi.

Natijada, hududiy tizimlarni boshqarish tuzilmalarining barcha faoliyati yuzaga kelgan muammolarga darhol javob berishga qaratilgan bo‘lib qolmoqda. Aglomeratsion tizimlarning zamonaviy rivojlanish holatiga, ularni strategik rejalashtirish usullari va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish vositalariga mos keluvchi talablar mavjud emas.

Aniqlangan muammolarni hal qilish uchun yirik aglomeratsion tizimlarning iqtisodiy o‘shini uchun asosiy shartlar va omillarni aniq belgilash zarur. Umumlashtirilgan holda, ushbu shartlar yetakchi aglomeratsiyalarida barqaror iqtisodiy o‘shish tamoyiliga muvofiqdir.

Ushbu tamoyilning mohiyati har bir mamlakat va uning alohida hududlari uchun shundaki, iqtisodiyot insonlarning ehtiyojlari va qonuniy istaklarini qondirishga xizmat qilishi, shu bilan birga uning o‘shini sayyoramiz ekologik imkoniyatlari chegarasiga mos kelishi lozim.

Bu jarayonlarning ahamiyati urbanizatsiyaning milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o‘shishiga ta‘siri bilan belgilanadi va aglomeratsion tuzilmalarni tashkil etuvchi yirik va o‘ta yirik shaharlarning joylashuvi majmuasi bilan tavsiflanadi.

Har qanday aglomeratsiyaning ko‘p qirrali hayot faoliyatini belgilovchi ko‘plab omillar orasida uning shakllangan ixtisoslashuvi va sanoat korxonalarini hamda ishlab chiqarish tuzilmasi ta‘sir kuchi va ko‘p qirrali ta‘sir doirasi bo‘yicha ajralib turadi. Aynan shu omillar ish o‘rinlari mavjudligi, daromad darajasi, ijtimoiy infratuzilmaning

rivojlanishi, uy-joy ta'minoti, aholini kommunal xizmatlar bilan ta'minlash sifati va boshqa jihatlarni belgilaydi.

Bularning barchasi aglomeratsiya tushunchasini aniqlashtirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi asosiy parametrlarni aniqlashni talab qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan aglomeratsiyalar ta'riflarining aksariyati uning mohiyatini quyidagi parametrlar bilan bog'laydi:

- aholi punktlari guruhining, asosan, transport yo'laklariga bog'langan holda ixcham joylashuvi yoki to'planganligi;

- shakllangan hudud ichidagi rivojlangan va ko'p komponentli intensiv aloqalar, bu aloqalar yarim-bir yarim yoki ikki soatlik transportda yetib borish masofasi bilan cheklanadi;

- umumiy chegaraning mavjudligi, u mayatnik migratsiyalarning yakuniy nuqtalari bilan belgilanadi;

- ma'muriy hududlar ta'sir zonasida bo'lgan bo'ysunuvchi aholi punktlarining mavjudligi.

Aglomeratsiyani katta aholi zichligi va cheklangan hududda hayot faoliyatini tashkil qilishning konsentratsiyalashgan shakli sifatida tushunish lozim. U murakkab, ko'p komponentli, intensiv ichki aloqalarga asoslangan dinamik tizimni tashkil etadi.

Aglomeratsion tuzilmalarning chegaralari mayatnik migratsiyalari bilan belgilanadi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda iqtisodiy o'sish jarayonida o'zgarib boradi. Aglomeratsiya mamlakatning umumiy iqtisodiy makonini tashkil etuvchi makroregional shakl hisoblanadi.

O'zbekistonda shahar aglomeratsiyalari urbanizatsiya jarayonlari, sanoatlashish va transport tarmoqlarining kengayishi natijasida shakllanib bormoqda. Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysi, Buxoro kabi yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalar vujudga kelmoqda. Aglomeratsiyalarni rivojlantirish jarayoni aholining tabiiy o'sishi, migratsiya oqimlari va iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining kengayishi bilan bog'liq. Biroq, infratuzilmaning sust rivojlanishi, resurslarning notekis taqsimlanishi va rejalashtirish jarayonlarining sustligi ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Shahar aglomeratsiyalarining shakllanishi va rivojlanish dinamikasini ilmiy asosda o'rganish va kompleks rejalashtirish zarur. Aglomeratsiyalarni barqaror rivojlantirish uchun transport, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish lozim. Mahalliy hokimiyat organlari urbanizatsiya jarayonlarini boshqarish uchun zamonaviy axborot tizimlarini joriy etishi kerak. Aholi zichligi ortayotgan hududlarda ekologik muammolarni oldini olish uchun yashil hududlar va ekologik loyihalarni kengaytirish lozim.

Shahar aglomeratsiyalarining shakllanishi va rivojlanishini samarali boshqarish uchun urbanizatsiya siyosatini kuchaytirish zarur. Hududiy rejalashtirish jarayonida infratuzilmani modernizatsiya qilish va muvozanatli rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Yashash muhitini yaxshilash maqsadida ekologik barqarorlik tamoyillariga rioya qilish zarur.

Shahar aglomeratsiyalari hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion markazlarni yaratish va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ular iqtisodiy o'sishning drayveri bo'lib, zamonaviy ishlab chiqarish klasterlari va xizmat ko'rsatish sektorini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlaydi. Shuningdek, bandlik darajasining oshishi va aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Shahar aglomeratsiyalarida investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion markazlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak. Transport va kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash orqali shaharlararo integratsiyani kuchaytirish muhim. Sanoat, xizmatlar va turizm sektorlarida iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash uchun strategik loyihalarni amalga oshirish lozim.

O'zbekistonda shahar aglomeratsiyalari iqtisodiy va demografik omillar natijasida shakllanmoqda. Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysi kabi yirik hududlarda urbanizatsiya jarayoni jadallashib, infratuzilma loyihalari amalga oshirilmogda. Biroq, rejalashtirilmagan urbanizatsiya va infratuzilmaviy muammolar aglomeratsiyalar rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Aglomeratsiyalar rivojlanishini davlat darajasida rejalashtirish va muvofiqlashtirish tizimini yaratish zarur. Yangi sanoat zonalari va turar-joy majmualari qurilishi infratuzilma bilan uyg'un holda olib borilishi lozim. Transport tizimini rivojlantirish va ekologik muammolarni hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Akbarov A. Shahar aglomeratsiyalarida transport tizimini boshqarish. – T.: Shahar transporti ilmiy markazi, 2021. – 150 b.
2. Shukurov F. Raqamli boshqaruv tizimlari va aqlli shaharlar. – T.: Axborot texnologiyalari instituti, 2022. – 180 b.
3. Kurbanov I. Shahar infratuzilmasini optimallashtirish. – T.: Urbanizatsiya ilmiy markazi, 2020. – 160 b.
4. Алексеев А. И. Проблемы транспортной инфраструктуры агломераций. – М.: Транспорт, 2020. – 200 с.
5. Барсуков В. А. Эволюция городских агломераций. – М.: Ульяновская область, 2021. – 170 с.